



XABARLARI

O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi haftalik gazetasi

Gazeta 2007-iyuldan chop etila boshlagan

KO'PROQ MA'LUMOT
OLISHNI ISTAYSIZMI?

QUYIDAGI VEB-SAHIFAMIZGA
TASHRIF BUYURING

[WWW.UZEX.UZ](http://www.uzex.uz)

Nº47 (798) 30.11.2022

Birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi



Birja savdo operatsiyalarini yanada kengaytirish, tovar-xom ashyo birjalarini va ularning professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-430 -son Qarori imzolandi.

To'liq 4-betda



Birjaning Navoiy filialida press-tur
va davra suhbati o'tkazildi

Joriy yil 29 noyabrdagi "Birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish va birjada shaffoflikni ta'minlash" mavzusida ommayiv axborot vositalari ishtirokida O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining Navoiy filialiga press-tur hamda mahalliy tadbirkorlar bilan davra suhbati tashkil etildi.

To'liq 5-betda

Anonslar

Haftalik indikatorlar

2-betda

Avtoraqamlar onlayn auksioni ma'lumotlari

3-betda

Birja savdolari sarhisobi

4-betda





Davlat xaridları

5-betda

Birja kotirovkalari

7-betda

Jahon va ichki bozorlardagi narxlar dinamikasi



O'zRTXB call-markazi:



+998 71 207-00-33



info@rtsb.uz

Bizni ijtimoiy
tarmoqlarda kuzating:



@uzexofficial



@uzexuz



@uzexuz



@uzexuz

xarid.uzex.uz

DAVLAT XARIDLARI MAXSUS
AXBOROT PORTALI

HAFTALIK INDIKATORLAR

mln. so'm

Ko'rsatkichlar	14.11-20.11.22	21.11-27.11.22	Dinamika	O'zgarish
"O'zRTXB" AJ savdolaridagi umumiy ko'rsatkich	2 340 139,0	2 542 074,1	▲	201 935,1
xususan:				
Birja savdolari	1 928 510,6	2 088 257,4	▲	159 746,8
Ko'rgazma-yarmarka savdolari	5 433,8	2 783,1	▼	-2 650,7
Avtoraqamlarni sotish bo'yicha onlayn aukcion	5 643,5	6 089,6	▲	446,2
Elektron davlat xaridi	400 551,1	444 944,0	▲	44 392,9
Elektron davlat xaridiarida mablag'larning tejalishi	81 013,1	87 446,5	▲	6 433,4
shu jumladan:				
Budjet buyurtmachilar uchun elektron aukcion	181 199,5	223 046,9	▲	41 847,4
Elektron auksionda budjet buyurtmachilarning pul mablag'lari tejalishi	17 377,5	19 404,7	▲	2 027,2
Budjet buyurtmachilar uchun elektron do'kon	115 666,0	116 038,5	▲	372,5
Elektron do'konda budjet buyurtmachilarning pul mablag'lari tejalishi	41 019,8	43 081,8	▲	2 062,0
Korporativ buyurtmachilar uchun elektron aukcion	35 677,9	38 431,3	▲	2 753,4
Elektron auksionda korporativ buyurtmachilarning pul mablag'lari tejalishi	5 653,9	7 600,7	▲	1 946,7
Korporativ buyurtmachilar uchun elektron do'kon	68 007,7	67 427,4	▼	-580,3
Elektron do'konda korporativ buyurtmachilarning pul mablag'lari tejalishi	16 961,9	17 359,4	▲	397,5
Kichik biznes va tadbirdorlik sub'ektlari	488 569,5	598 365,6	▲	109 796,1
shu jumladan:				
Kichik biznes va tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan mahsulotlarning xarid qilinishi	397 491,5	493 523,9	▲	96 032,3
Kichik biznes va tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan mahsulotlarning sotilishi	91 077,9	104 841,7	▲	13 763,8

2022-yil 1-yanvardan 25-noyabrga qadar "O'zRTXB" AJning birja savdo platformasi ko'rsatkichlari

Joriy yil 1-yanvardan 25-noyabrga qadar birja savdolarida 90 138,5 mlrd so'mlik bitimlar tuzilib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 40 foizga o'sish kuzildi.

Tovar aylanmaning asosiy qismini dizel yoqilgisi 11,1% (10 012,0 mlrd), avtomobil benzini 9,6% (8 631,7 mlrd), mineral o'g'itlar 8,4% (7 570,2 mlrd), mis 7,1% (6 384,4 mlrd), bug'doy 6,4% (5 768,6 mlrd) va paxta tolasi 5,3% (4 795,8 mlrd) tashkil qilmoqda.

O'z navbatida tovar aylanma hajmi hududlar kesimida ko'rilsa, birinchi uchtalikni Toshkent shahri (22 699,3 mlrd), Toshkent viloyati (11 485,5 mlrd) va Navoiy viloyati (10 469,7 mlrd) egallagan.

Ushbu davr mobaynida jami 9 730 ta sotuvchi tashkilotlar o'z mahsulotlarini sotgan bo'lsa, ushbu tovarlarning xaridorlari sifatida 28 605 ta sub'yeqtalar ishtiroy etishgan. O'z navbatida 4 165 ta tovar markalari bo'yicha 635 mingdan ortiq kuzimlar tuzildi.

Tuzilgan bitimlarning (soni bo'yicha) katta qismi un (208 658 ta), avtomobil benzini (90 311 ta), sement (61 916 ta), shakar (32 607 ta), qora metallar prokati (30 919 ta) hamda omuxta yemga (30 721 ta) mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, xaridorlarining soni bo'yicha un yetakchilik qilmoqda. Ushbu tovari 13 236 ta xaridor sotib olgan bo'lib, keyingi o'rinnlarda sement 4 943 ta, mineral o'g'itlarda 2 478 ta, omuxta yem 2 396 ta hamda shakar 2 362 ta xaridorlar qayd etildi.

Savdolarda boshlang'ich narxning o'sishi o'ttacha 13,6 foizni tashkil qildi. Lekin ayrim tovarlar bo'yicha narxning o'sish dinamikasi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, texnik oltingugurt (221%), suyutirilgan gaz (83%), texnik chigit (47%) va polimerlar (33%) narxlari o'sishi kuzatildi.

Boshlang'ich narx o'sishi hisobiga sotuvchi tashkilotlar jami 10 304,5 mlrd so'm qo'shimcha daromadiga ega bo'lgan. Qo'shimcha daromad asosan texnik oltingugurt, avtomobil benzini, gaz kondensati, polimer mahsulotlari, omuxta yem va qurilish oynas mahsulotlaridan olingan.



Bundan tashqari, birja savdolarida yuqori likvidli yoki monopol turdag'i mahsulotlar ro'yxatiga kirmagan boshqa birja tovarlari ham sotilishi mumkin. Bunday tovarlarga qurilish materiallari, kimyoiy vositalar, motor moylari va

boshqa turdag'i mahsulotlar kiradi.

Ushbu turdag'i tovarlarning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 9,3% yoki 8 349,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichda piroliz moyi, neft gachi, quruv, po'lat list va boshqa turdag'i qurilish mahsulotlari asosiy ulushni egallagan.

E'tiborli tomoni, ushbu yo'nalishda ham

sotuvchilar tomonidan sezilarli darajada qo'shimcha daromad olinmoqda. Jami olingen qo'shimcha daromad 76,0 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichdagi tovarlarning asosiyalar piroliz moyi, gach II neft mahsuloti, suyuq uglerod oksidi va boshqa xom ashylar hisoblanadi.



"O'zRTXB" AJ birja savdolari aylanmasi dinamikasi



AVTORAQAMLAR ONLAYN AUKSIONI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

(2022-yil 21-noyabrdan 27-noyabrgacha bo'lgan davrda)

Ko'rileyotgan davr mobaynida avtoraqam.uzex.uz savdo tizimiga jami 5 780 ta avtotransport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari joylashtirilgan bo'lib, shundan 2 073 tasi jismoniy shaxslar uchun va 3 707 tasi yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan.

2022-yil 21-noyabrdan 27-noyabr oraliq'ida


2 326 ta avtoraqamlar bo'yicha auksion savdolar amalga oshirilgan bo'lib, ularning jami summasi 6 089,6 mln so'mni tashkil etdi. Amalga oshgan bitimlarning 94% ulushi jismoniy shaxslarga (5 704,1 mln so'mga teng 2 210 ta avtoraqam) va 6% ulushi yuridik shaxslarga (385,5 mln. so'mga teng 116 ta avtoraqam) to'g'ri keladi.

Tuzilgan bitimlarning bittasi bo'yicha o'rtacha qiymat 2,6 mln so'mni tashkil etib,

sotilgan avtoraqamlarning eng past bahosi 606,0 ming so'mni, eng qimmat avtoraqamning bahosi esa 90,9 mln so'mni tashkil qildi.

Bundan tashqari, avtoraqam.uzex.uz axborot tizimida ro'yxatdan o'tgan talabgorlar soni 496 992 nafarni tashkil etmoqda, shulardan 474 747 nafari jismoniy shaxslar va 22 245 nafari yuridik shaxslarga to'g'ri keladi.


Toifalar bo'yicha



Shuningdek, 2022-yil 21-noyabrdan 27-noyabr oraliq'ida talab yuqori bo'lgan avtoraqamlarning o'rtacha narxlari quyidagilarni tashkil etdi:

Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi	Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi
1- toifa		4- toifa	
007	30 900 000	099	5 688 000
700	30 900 000	779	5 688 000
888	20 085 000	747	5 232 000
100	19 908 000	330	4 320 000
2- toifa		5- toifa	
800	9 832 500	979	6 060 000
444	9 180 000	181	5 085 000
202	8 320 000	989	3 750 000
080	7 068 000	755	2 745 000
3- toifa		6- toifa	
090	12 630 000	201	6 138 000
088	7 290 000	750	2 718 000
757	4 530 000	551	2 430 000
090	4 080 000	991	1 890 000
066	3 157 500	299	1 620 000

Avtoraqamlar bo'yicha 2022-yil 21-noyabrdan 27-noyabr oraliq'ida bitimlar soni va o'rtacha narxlari to'g'risida ma'lumot



Toshkent shahri
bo'yicha:

Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi	Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi
1- toifa		4- toifa	
777	31 462 500	771	4 246 000
111	17 850 000	702	3 706 800
007	16 950 000	787	3 652 800
700	16 528 125	711	3 520 500
2- toifa		5- toifa	
010	25 326 000	571	3 377 000
070	12 770 000	177	3 294 000
077	12 345 000	575	3 063 375
707	11 974 285	818	3 006 000
3- toifa		6- toifa	
770	8 734 285	201	3 337 500
717	8 595 000	501	2 390 250
701	7 875 000	071	2 178 000
400	7 755 000	221	2 175 428
008	7 125 000	017	2 113 200

Qoraqalpog'iston Respublikasi
va viloyatlar bo'yicha:

Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi	Avtoraqam	Avtoraqam o'rtacha narxi
1- toifa		4- toifa	
777	31 462 500	771	4 246 000
111	17 850 000	702	3 706 800
007	16 950 000	787	3 652 800
700	16 528 125	711	3 520 500
2- toifa		5- toifa	
010	25 326 000	571	3 377 000
070	12 770 000	177	3 294 000
077	12 345 000	575	3 063 375
707	11 974 285	818	3 006 000
3- toifa		6- toifa	
770	8 734 285	201	3 337 500
717	8 595 000	501	2 390 250
701	7 875 000	071	2 178 000
400	7 755 000	221	2 175 428
008	7 125 000	017	2 113 200

Hudud	Bitimlar soni	Bitimlar summasi (mln. so'm)	O'rtacha o'sish (%)
Andijon	73	233,5	125%
Buxoro	139	537,7	245%
Toshkent shahri	366	1 139,4	31%
Jizzax	281	676,0	83%
Qashqadaryo	167	509,9	187%
Navoiy	63	119,9	84%
Namangan	120	422,0	181%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75	137,0	93%
Samarqand	258	484,0	130%
Surxondaryo	130	424,6	233%
Sirdaryo	152	322,7	51%
Toshkent viloyati	123	205,9	63%
Farg'ona	13	108,7	2%
Xorazm	366	768,5	87%
Jami	2 326	6 089,6	93%

2022-yil 21-noyabrdan 27-noyabrgacha bo'lgan davrda davlat xaridlarida tizimida TOP 10 - eng ko'p sotilgan tovarlar toifasi

Nº	Tovar va xizmatlar	Qiymati
1.	Qog'oz	2 425 bitim – 5,3 mlrd. so'm
2.	Elektr jihozlari	2 291 bitim – 19,4 mlrd. so'm
3.	Kompyuter uskunaları	2 021 bitim – 45,0 mlrd. so'm
4.	Tayyor metall buyumlar	1 756 bitim – 12,5 mlrd. so'm
5.	Mashina va uskunalar	1 554 bitim – 50,3 mlrd. so'm
6.	Dori-darmon	1 488 bitim – 34,8 mlrd. so'm
7.	Kimyoiy moddalar	1 417 bitim – 12,0 mlrd. so'm
8.	Plastik va kauchuk mahsulotlari	1 313 bitim – 12,6 mlrd. so'm
9.	Boshqa tayyor mahsulotlar	1 267 bitim – 23,8 mlrd. so'm
10.	Nashriyot xizmatlari	984 bitim – 38,6 mlrd. so'm

Amerika sessiyasida tabiiy gaz fyucherslari narxi tushib ketdi



28-noyabr kuni Amerika sessiyasida tabiiy gaz uchun fyuchers kotirovkalari pasaydi.

Yu-York tovar birjasida yanvar oyida yetkazib beriladigan tabiiy gaz fyucherslarining bir million BIB (Britaniya issiqlik birligi) 2,31% ga pasayib, 7,16 dollarga sotildi.

Sessiyaning minimum bir million BIB uchun dollar belgisi edi. Gaz 6,931 dollardan qollab-quvvatlandi va qarshilik 8,177 dollarni tashkil etdi.

AQSh dollarining oltita asosiy valyuta savatiga nisbatini ko'satadigan USD indeksi fyucherslari 0,55 foizga oshib, 106,50 dollarni tashkil qildi.

NYMEX (Yu-York tovar birjasi)da sotiladigan boshqa tovarlarga kelsak, yanvar oyida etkazib beriladigan WTI neftining fyucherslari 1,19 foizga oshib, bir barreli uchun narx 77,19 dollarni tashkil qildi, yanvar oyida yetkazib beriladigan mazut fyucherslari esa 0,32 foizga tushib, bir gallon uchun 3,16 dollarni tashkil qildi.

Birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi



Qarori imzolandi.

Mazkur Qarorga muvofiq:

- tadbirdorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ularni bir vaqtning o'zida birja tizimida akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi joriy etiladi;
 - xorijiy yetkazib beruvchilar tomonidan davlat xaridlarida tizimida ishtiroy etish uchun majburiy tartibda ERI olish talabi bekor qilinadi;
 - tadbirdorlik subyektlarining yuqori likvidli va monopol bo'limgan mahsulotlarini birja savdolari orqali sotish uchun istiqbolli tovarlar seksiyasi tashkil etiladi;
 - tadbirdorlik subyektlariga, o'z xohishiga ko'ra, birjadan tashqari to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar buyicha birjaning hisob-kitob-kliring tizimi orqali kafolatli hisob-kitob xizmatidan foydalanish imkoniyati yaratiladi;
 - mahsulotlarni "forward" bitimlari asosida sotish tartibi birja savdolari orqali tuziladigan eksport-import shartnomalariga nisbatan xam qo'llaniladi.
- 2022-yil 1-dekabrdan 2024-yil 1-yanvarga qadar kuyidagi tovarlar ichki bozorda faqat birja savdolari orqali realitsiya qilinadi:
- monopol korxonalar va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 % va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, ustav fondi (kapitali)ning 50 % va undan ortiq'i ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 % va undan ortiq

bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan po'lat shar, metall list prokati, suyuq uglerod oksidi, texnik kislorod, kaustik soda, neft koxsi, sintetik nafta, barda – ishlab chiqarish xajmining 100%;

• monopol bo'limgan va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50% kam bo'lgan yoki davlat ulushi mavjud bo'limgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan;

- metall list prokati va cement – ishlab chiqarish xajmining 50%;

- paxtadan olingen chigit, paxta moyi (shu jumladan, ekstraksiya paxta moyi), qayta ishlangan chigit chiqindilar (shot, sheluxa) va iste'mol etil spirti – ishlab chiqarish xajmining 100%.

Shuningdek, Qaror bilan ichki bozorda narxlar keskin oshib ketishining va sun'iy tanqislik vujudga kelishining oldini olish bo'yicha tizimni joriy etish hamda xorijiy ekspertlar va konsalting kompaniyalarini jaib qilgan holda Uzbekiston respublikasi tovar-xom ashyo birjasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish belgilangan.

Mazkur Qarorning to'liq matni bilan birjaning rasmiy vebsaytining Me'yoriy-huquqiy aktlar bo'limida tanishib chiqishingiz mumkin.

Birja savdo operatsiyalarini yanada kengaytirish, tovar-xom ashyo birjalari va ularning professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-430 -son

Birjaning davlat zaxiralari bo'yicha ixtisoslashtirilgan platformasida dastlabki e'lonlar joylashtirildi



O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi bilan birligida davzaxira.uz yangi ixtisoslashtirilgan elektron

savdo platformsini ishga tushirdi.

Mazkur platformada davlat zaxiralarini mahsulotlarini auksion tartibida xarid qilish va sotishni tashkillashtirish hamda barcha savdo ishtirotchilarini uchun teng sharoitlarni yaratib berish maqsadida ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Platformadagi onlayn-auksionlar "O'zdavzaxira" qo'mitasi va "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ tomonidan 2022-yil 22-sentyabrda tasdiqlangan savdo qoidalariiga muvofiq birjaning an'anaviy ochiqligi, oshkoraliq va shaffoflik tamoyillari asosida o'tkazildi.

Elektron savdolarda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari, yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlar ishtirot etishlari mumkin.

Buning uchun xaridorlar ERI kalitidan foydalangan holda birjada ro'yxatdan va identifikatsiyadan o'tishlari lozim.

Shuningdek, tuzilgan bitimlar bo'yicha majburiyatlarni bajarilishini kafolatlash maqsadida savdo ishtirotchilaridan birjaning Hisob-kitob kliring palatasiga zakalat mablag'larini kiritilishi ham talab etiladi.

Ayni paytda davzaxira.uzex.uz ixtisoslashtirilgan elektron savdo platformasida po'lat simini sotish bo'yicha "O'zdavzaxira" qo'mitasining dastlabki e'loni joylashtirilgan. Mazkur lot bo'yicha boshlang'ich narx mahsulotning bir tonnasi uchun 20 096 153,84 so'm, yetkazib berish muddati esa 10 kun tashkil qiladi.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi va O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi o'rtasida 2022-yil 9-fevralda tuzilgan o'zaro kelishuv asosida amalga oshirilmoqda.

Birjaning Navoiy filialida press-tur va davra suhbatি o'tkazildi



Joriy yil 29 noyabrda "Birja mehanizmlaridan foydalanishni kengaytirish va birjada shaffoflikni ta'minlash" mavzusida ommaviy axborot vositalari ishtirotida O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining Navoiy filialiga press-tur hamda mahalliy tadbirkorlar bilan davra suhbat tashkil etildi.

Mazkur tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-430-sonli qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining Navoiy filiali faoliyatini bilan yaqindan tanishtirishdan iborat bo'ldi.

Tadbirda jurnalist va tadbirkorlar bilan o'tkazilgan jonli muloqot o'tkazilib, birja savdolarini rivojlanişiga oid masalalar muhokama qilindi.

Xususan, ularga 2022 yil 24 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mehanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-430-son qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qaror birja savdo operatsiyalarini yanada kengaytirish, tovar-xom ashyo birjalari va ularning professional ishtirotchilarini faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

Hujjat bilan bir qator yangiliklar nazarda tutilgan, shu jumladan:

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda bir vaqtining o'zida birja tizimida ham akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi joriy etiladi.

Xorijiy yetkazib beruvchilar tomonidan davlat xaridlarini tizimida ishtirot etish uchun majburiy tartibda elektron imzo olish talabi bekor kiliadi.

Birjada tadbirkorlik subyektlarining istiqbolli tovarlar seksiyasi tashkil etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarini tuzishda birjaning hisob-kitob kliring tizimi orqali kafolatlash xizmatidan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Birjada tuziladigan eksport-import shartnomalarda ham "forward" bitimlari qo'llaniladi.

Shuningdek, monopolist korxonalar va davlat ulushi 50% dan yuqori bo'lgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan fagaqtina birja savdolari orqali solitadigan tovarlar ro'yxati kengaytirildi.

Ushbu ruxsatga po'lat shar, metall list prokati, suyuq uglerod oksidi, texnik kislород, kaustik soda, neft koksi, sintetik nafta va barda kabi mahsulotlar kiritildi.

Bundan tashqari, monopolist bo'lmagan korxonalar tomonidan metall listi prokati va sementning 50%, hamda paxtadan olingan chigit, paxta moyi, shrot, sheluxa va iste'mol etil spirtingin 100% birja savdolari orqali solitadi.

Shu bilan birga, Qaror bilan ichki bozorda narxlar keskin oshib ketishining va sun'iy tankislik vujudga kelishining oldini olish bo'yicha tizimni joriy etish hamda xorijiy eksperterlar va konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda Uzbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish belgilangan.

Press-tur davomida ommaviy axborot vositalari vakillari birja filialining faoliyatini bilan yaqindan tanishishdi. Xususan, ularga filialning birja savdolarini tashkillashtirish bo'limi, hisob-kitob kliring palatasi va elektron tijorat bo'limalarida kundalik amalga oshiriladigan ishlar batfsil tushuntirildi.

Ta'kidlanganidek, mijozlarga sifatlari maslahat berish va xizmat ko'rsatish uchun birja zamonaviy texnologik vositalar, shu jumladan alohiда kompyuter uskunalarini va LED axborot monitorlari hamda uzlusiz elektr manbai bilan jihozlangan.

O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining Navoiy filialida markaziy savdo zalidan tashqari jami 10 ta savdo maydonchalari, 57 ta brokerlik idoralari va qariyb 112 ta treyderlar faoliyat yuritadi.

Joriy yil boshidan buyon filialda o'tkazilagan elektron savdolar natijasida jami 6,7 trln so'mlik bitimlar tuzilgan

bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20% ga ko'pdir. Jumladan bitimlarning asosiy qismi, ya'n 78% birja savdolariga, qolgan 22% esa elektron tijorat savdo tizimlariga to'g'ri kelgan.

Press-tur davomida ommaviy axborot vositalari va tadbirkorlar uchun taqdimotlar ham o'tkazildi. Taqdimotlarda Navoiy viloyatida tadbirkorlarning birja savdolari va onlayn-auksionlarda ishtirot etish tartiblarini batafsil tushuntirdilar.

Ta'kidlanganidek, mijozlar birja savdolarda qatnashish uchun birjaning filiali yoki savdo maydonchasida faoliyat yurituvchi brokerlik idorasini bilan shartnomalarini tuzish kerak. Shuningdek, ular elektron davlat xaridlarini, ko'rgazma-yarmarka savdolari, avtoraqam yoki mobil raqamlarning onlayn auksionlarda o'zlarining shaxsий kabinetlari orqali onlayn tarzda ishtirot etishlari mumkin. Buning uchun birjada bepul asosda onlayn-ro'yxatdan o'tish va garov mablag'larini kiritishning o'zi kifoya.

Shuningdek, birja savdolari va elektron tijorat savdo tizimlarining shaffofligini ta'minlashda birjaning rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini va boshqa media resurslaridan keng foydalaniadi. Xususan, birjaning uzex.uz veb-saytida foydalanuvchilar birja faoliyatini va xizmatlariga doir barcha ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Birjada muloqot aloqalari va jamoatchilik nazoratining arali tizimi ham yaratilgan. Elektron savdolarda ishtirot etishda muammolarga duch kelgan holda fuqarolar va tadbirkorlar @uzexfeedbackbot, korrupsiya holatlari bo'yicha esa @uzexanticorruptionbot telegram-botlari orqali murojaat qilishlari mumkin.

Press-turda matbuot xodimlari birjaning savdo zalida elektron birja savdolari bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'dilar. Birja brokerlari tadbir ishtirotchilariga brokerlik idorasini ochish tartibi va treyderlarning kundalik ish faoliyatini bilan tushuntirdilar.

Press-tur va davra suhbat davomida birja mutaxassislar jurnalistlar va tadbirkorlarning qiziqtirgan savollariga javob berishdi.

Ko'rgazma-yarmarka savdolari

UZ
EX YARMARKA
www.yarmarka.uzex.uz

Savdolarda ishtirok etish bo'yicha qo'llanma

Yangi Ko'rgazma-yarmarka savdolarida ishtirok etish uchun dastlab Ko'rgazma-yarmarka savdolari veb-sayti

www.yarmarka.uzex.uz

da ro'yxatdan o'ting.



Ro'yxatdan o'tish



Vebsaytga kiring va ro'yxatdan o'tish bo'limida faoliyatigizdan kelib chiqib mijoz turini tanlang.



Tijorat bankdagi hisobraqamnlariga kiriting.



Tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron raqamli imzo (ERI) yoki yagona identifikatsiya tizimi (ONE ID) orqali to'dilring.



Shaxsiy kabinetning faollashtirish.

Sotuv



1 Shaxsiy kabinetningiz orqali tovar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni kiriting, hamda uning fotosuratini tizimga yuklang.



4 Narxlarni so'rash mexanizmi qo'llanilganda tizim tomonidan berilgan aukcion davomida o'z narx taklifingizni bering.




2 Tovarni sotish uchun savdo turi va shaklini tanlang.



5 To'lovlardan amalga oshirilgandan so'ng tuzilgan shartnomaga muvofiq tovarni yuklang.



3 Kafolatlangan savdo uchun hisob-kitob kliring palatasiga 10% gacha garov mablag'ini kiriting.



Xarid



1 Shaxsiy kabinet orqali xarid qilmoqchi bo'lgan tovarni qidirib toping va uni tanlang.



4 Narxlarni so'rash mexanizmi nazarda tutilgan taqdirda, mazkur xizmat turidan foydalанин, eng arzon narx taklif etilgan tovari tanlang.



5 Shartnomasi tanlangan savdo turidagi kelib chiqqan holda tuziladi.



6 Kafolatlangan savdo shakli nazarda tutilgan taqdirda, tovar uchun to'lovlarning qolgan qismini kiriting.



7 To'lovlardan amalga oshirilgandan so'ng shartnomaga shartlariga muvofiq xarid qilingan tovara egalik qiling.

Savdolar shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi. Yangi Ko'rgazma-yarmarka savdolari kafolatli yoki kafolatsiz shakllarda o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining elektron haftalik gazetasi

Muassis: «O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasasi» AJ
Bosh muharrir: Hikmatullo Tillaboyev.
Gazeta uchun mas'ul: Mashxura Haqberdiyeva.
Dizayner: Nuriddin Haydarov.

Tel: 71-207-00-33

Faks: 71-213-33-19

Manzil: 100090, Toshkent shahri, Bobur ko'chasi, 77-uy.

E-mail: press-service@rtsb.uz

Gazetadan ko'chirib bosilgan materiallar «UZEX xabarlari»dan olindi deb ko'satilishi shart.

Reklama qilinayotgan mahsulotlar sertifikatlangan, xizmatlar litsenziyalangan.

Tiraj: Elektron nusxada

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 02-0081-raqam bilan 2007 yil 21 may kuni ro'yxatga olingan.



ISSN 2010-636X